

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
355 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'рни	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QQS MA'MURCHILIGI AMALIYOTI TAHLILI

Eshkarayev Bobir Chariyevich

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: bobireshkaraev@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2301-0474

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ma'murchiligining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. 2020–2025-yillarda amalga oshirilgan islohotlar — soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish, elektron hisobvara-fakturalar (EHF) tizimini joriy qilish, hisobot topshirish amaliyoti, QQSni qaytarish jarayoni hamda risk-tahlil tizimi qamrab olingan. Shuningdek, EHFlar soni, QQS tushumlari va qaytarish dinamikasi bo'yicha statistik tahlillar keltirilgan, mavjud muammolarga yechim sifatida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: QQS, soliq ma'murchiligi, elektron hisobvara-faktura, risk-tahlil, qaytarish.

Abstract: This article examines the administration of value-added tax (VAT) in the Republic of Uzbekistan, with a focus on the key reform directions undertaken during 2020–2025. Particular attention is given to taxpayer registration, the implementation of the electronic invoicing system (EIS), reporting procedures, VAT refund mechanisms, and the development of a risk-based analysis system. The study provides a statistical assessment of the volume of electronic invoices, the dynamics of VAT revenues and refunds, and formulates proposals and policy recommendations aimed at improving efficiency and addressing existing challenges in VAT administration.

Keywords: VAT, tax administration, electronic invoice, risk analysis, refund.

Аннотация: В статье анализируется практика администрирования налога на добавленную стоимость (НДС) в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные направления реформ 2020–2025 годов: постановка плательщиков на учёт, внедрение системы электронных счетов-фактур (ЭСФ), порядок подачи отчётности, возврат НДС, а также система риск-анализа. Приведён статистический анализ количества ЭСФ, динамики поступлений и возвратов НДС, а также разработаны предложения и рекомендации по устранению существующих проблем.

Ключевые слова: НДС, налоговое администрирование, электронный счёт-фактура, риск-анализ, возврат.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) davlat budjetining eng asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Masalan, 2015-yilda bu ko'rsatkich 30,3 foizni, 2018-yilda eng yuqori — 35,9 foizni, 2024-yilda esa 21,6 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar QQSning mamlakat soliq tizimidagi muhim ahamiyatini va budjet barqarorligini ta'minlashdagi rolini yaqqol namoyon qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, QQS samarali qo'llanilganda davlat budjeti barqarorligini ta'minlaydi, biznes muhitini yaxshilaydi hamda iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bois O'zbekistonda ham so'nggi yillarda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, elektron hisobvara-faktura tizimini joriy etish, risk-tahlilga asoslangan nazorat choralarini kuchaytirish kabi bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi.

Biroq amaldagi tizimda bir qator muammolar ham saqlanib qolmoqda: soliq qaytarish jarayonidagi kechikishlar, texnik nosozliklar va ayrim hollarda soliq fribgarliklari. Bu holatlar iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qo'shimcha xarajat va xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligini amaliyotda tahlil qilish, uning asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar samaradorligini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

QQS ma'murchiligiga oid masalalar bo'yicha jahon va mahalliy tadqiqotlarda turli yondashuvlar uchraydi.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF). XVFning "Zamonaviy QQS" (2001) hamda undan keyingi texnik ko'rsatmalarida ta'kidlanishicha, QQSning samarali ma'murchiligini ta'minlash uchun to'liq hisobga olish, elektron hisobvaraqq-fakturalar, xatarlarga asoslangan nazorat tizimlari va qaytarish jarayonlarini avtomatlashtirish muhimdir. XVF ko'plab mamlakatlarda QQSning katta afzalliklari (keng qamrov va bashorat qilinadigan daromad manbai) aynan samarali ma'muriyat orqali ro'yobga chiqishini ta'kidlaydi. Shu bois tashkilot QQS bo'yicha xatar tahlili, "muvofiqlik bo'shlig'i"ni o'lchash va tezkor qaytarish mexanizmlarini joriy etishni asosiy yo'nalish sifatida tavsiya etadi.

Jahon banki (JB). Jahon bankining qator tadqiqotlari QQS ma'murchiligini samarali tashkil etish davlat budjeti barqarorligi uchun hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. Xususan, "Nazariya va amaliyotda QQS stavkalari tuzilmasi" hamda QQS muvofiqlik bo'shlig'i bo'yicha ishlarida, JB QQS imtiyozlarini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirish orqali soliq tushumlarini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. JB, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda QQS qaytarish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash va biznesga xizmat ko'rsatish madaniyatini yuksaltirish zarurligini alohida qayd etadi.

IHTT (OECD). IHTT har ikki yilda chop etiladigan Consumption Tax Trends hisobotlarida QQS ma'murchiligi bo'yicha yangilangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Unda mamlakatlardagi QQS stavkalari, qaytarish amaliyoti, raqamlashtirish jarayonlari va soliq tuzilmasidagi tendensiyalar tahlil qilinadi. IHTT tavsiyalariga ko'ra, samarali QQS ma'murchiligi uchun elektron hisobvaraqq-fakturalarni ommalashtirish, transchegaraviy ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish va "tax gap" ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlar (Sh. Toshmatov, I. Niyazmetov, M. Abishov, K. Ismailov, U. Normurzayev, U. Safarov, J. Urazmatov, N. Muhammadov, D. Abdulov, F. Babayev, J. Donaboyev va boshqalar) tadqiqotlarida asosiy e'tibor QQSning mohiyati, ahamiyati, davlat budjeti barqarorligidagi roli, imtiyozlarni qisqartirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va soliq intizomini oshirish masalalariga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida O'zbekistonda QQS ma'murchiligi amaliyotini o'rganishda normativ-huquqiy tahlil, statistik tahlil hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ma'murchiligi — bu soliq organlari va davlat tomonidan QQSning to'g'ri va o'z vaqtida hisoblanishi, yig'ilishi, tekshirilishi hamda qaytarilishi uchun amalga oshiriladigan tashkiliy, huquqiy va amaliy chora-tadbirlar tizimidir.

Boshqacha qilib aytganda, QQS ma'murchiligi — bu soliq to'lovchini ro'yxatdan o'tkazishdan boshlab, hisobot taqdim etish, elektron hisobvaraqq-fakturalar orqali ma'lumot to'plash, xavf tahlili va nazorat, soliq tekshiruvlari hamda soliqni qaytarish (qoplash) jarayonlarini qamrab oladigan soliq boshqaruvi mexanizmi hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va XVF, JB, IHTT tavsiyalariga ko'ra, QQS ma'murchiligi quyidagi elementlardan iborat bo'lishi kerak:

- Ro'yxatdan o'tkazish (Registration): soliq to'lovchilarni identifikatsiyalash va QQS to'lovchi sifatida ro'yxatga olish.
- Hisobot va hisob-kitob (Filing & Accounting): deklaratsiyalar va elektron hisobvaraqq-fakturalar orqali operatsiyalarni to'liq qayd etish.
- Nazorat va monitoring (Control & Audit): xavf tahlili asosida tekshiruvlar, soliq intizomini ta'minlash.
- QQSni qaytarish (VAT Refund): eksportchilarga yoki ortiqcha soliq to'lovchilarga soliq summasini shaffof va tezkor qaytarish.
- To'lovlarni yig'ish (Collection): budjetga o'z vaqtida va to'liq tushumni ta'minlash.
- Raqamlashtirish (Digitalization): elektron hisobvaraqq-fakturalar, onlayn kassa va ma'lumot almashinuvi tizimlari.

Umumlashtirib aytganda, QQS ma'murchiligi — bu soliq organlari va biznes o'rtasidagi barcha tashkiliy-huquqiy jarayonlarni qamrab oladigan, budjetga to'g'ri va barqaror soliq tushumlarini ta'minlaydigan boshqaruv tizimi hisoblanadi.



QQS ma'murchiligi elementlarining O'zbekiston Respublikasida qo'llanish amaliyotini tahlil qilamiz.

1. QQS to'lovchilarini ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi 595-son qaroriga asosan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lovchilarini maxsus ro'yxatga olish tartibi belgilangan. Ushbu tartib soliq ma'murchiligining samaradorligini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish va to'lovchilarning soliq intizomini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilikka muvofiq, quyidagi toifalar QQS to'lovchilari sifatida e'tirof etiladi:

- Umumiy to'lovchilar: yuridik shaxslar, yirik korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar (agar yillik aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshsa).

- Import qiluvchilar: tovarlar importida daromad hajmidan qat'i nazar QQS to'laydi.

- Soliq agentlari: xorijiy yuridik va jismoniy shaxslardan xizmat va tovar xarid qiluvchi tashkilotlar.

- Alohida toifalar: aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchilar, foydali qazilmalar qazib oluvchilar, qishloq xo'jaligi yerlari 25 gektardan ortiq bo'lgan subyektlar, yoqilg'i savdosi bilan shug'ullanuvchilar, bozor va savdo majmualari, auditorlik va soliq maslahatchilari tashkilotlari va boshqalar.

Soliq to'lovchi my.soliq.uz portali orqali elektron ariza taqdim etadi. Davlat soliq xizmati organlari:

- 7 kun ichida to'lovchining xavf darajasini baholaydi;

- xavf darajasiga qarab qaror qabul qiladi:

- yuqori xavf — rad etiladi,

- o'rta xavf — shartli ravishda ro'yxatga olinadi,

- past xavf — to'liq ro'yxatga olinadi;

- qaror qabul qilinganidan so'ng 1 ish kuni ichida guvohnoma elektron shaklda yuboriladi.

2020–2025-yillarda elektron ro'yxatga olish tizimining joriy etilishi to'lovchilar uchun qulaylik yaratmoqda va ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirmoqda. Xavf tahlili asosida ro'yxatdan o'tkazish soliq intizomini oshirishga va firibgarlik sxemalarini aniqlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda texnik uzilishlar va hujjat aylanmasidagi kechikishlar biznes uchun noqulaylik tug'dirmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra, soliq to'lovchi my.soliq.uz portali orqali ariza berib, QQS guvohnomasini olgandan keyingina kiruvchi QQSni hisobga olish (zachet qilish) huquqiga ega bo'ladi. Lekin aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan yoki import operatsiyalarini amalga oshirgan korxonalarda QQS majburiy hisoblanadi. Bu esa ular uchun ma'lum vaqt mobaynida soliq yuki ortib, kiruvchi QQSni hisobga olish imkoniyatining kechikishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, quyidagi subyektlarga QQS guvohnomasini avtomatik berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- yillik aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan korxonalar;

- import operatsiyalarini amalga oshiruvchi subyektlar.

Mazkur taklif amaliyotga joriy etilsa:

- kiruvchi QQSni hisobga olishdagi kechikishlar bartaraf etiladi;

- soliq to'lovchilarning ortiqcha soliq yuki kamayadi;

- QQS qamrovi kengayib, soliq intizomi oshadi.

2. Elektron hisobvara-fakturalar (EHF) amaliyoti

O'zbekistonda elektron hisobvara-fakturalar (EHF) tizimi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 522-son qaroriga asosan 2020-yil 1-yanvardan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy tartibda joriy etilgan. Ushbu islohot soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va aylanmalarni to'liq hisobga olishda muhim qadam bo'ldi.

Joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

- 2018-yilda — Chirchiq, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida tajriba loyihasi (17 ming subyekt qatnashgan);

- 2019-yil 1-iyuldan — ixtiyoriy tartibda foydalanish;

- 2020-yil 1-yanvardan — barcha subyektlar uchun majburiy tartibda joriy etish.


- EHF tizimining joriy etilishi qator ijobiy natijalarga olib keldi:

- soliq to'lovchilar uchun hisobvara-fakturalarni rasmiylashtirish jarayoni soddalashdi;

- soliq organlari xarid va sotish operatsiyalarini real vaqtda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi;

- hisobvara-fakturalarda xatolar soni kamaydi, hujjat aylanmasi tezlashdi;

- elektron raqamli imzo (ERI) orqali hujjatlarni masofadan turib tasdiqlash imkoniyati yaratildi (1-rasm).



1-rasm. 2021-2024-yillarda rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraq-fakturalar

Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlariga (1-rasm) ko'ra, 2021-yilda EHF orqali rasmiylashtirilgan tovar aylanmasi 1035,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2041,6 trln so'mga yetdi (qariyb 2 barobar o'sish). EHFlar soni esa 33,3 mln donadan 47,2 mln donagacha oshdi. Elektron hujjat aylanishi operatorlari soni 2021-yilda 15 tadan 2024-yilda 27 tagacha ko'paydi.

Lekin tizimda ba'zi muammolar ham mavjud:

- ayrim hollarda texnik uzilishlar kuzatiladi;
- kichik biznes subyektlarining barchasida ham raqamli savodxonlik darajasi yetarli emas.

Xulosa qilib aytish mumkinki, EHF tizimi orqali aylanmalarning qamrovi kengaydi, iqtisodiy faoliyat shaffofligi oshdi va soliq organlari nazorati kuchaydi. Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish uchun uni B2C operatsiyalariga ham joriy etish va avtomatlashtirish darajasini oshirish zarur.

3. QQS hisobotini topshirish amaliyoti

O'zbekiston Respublikasida QQS hisoboti elektron shaklda my.soliq.uz portali orqali taqdim etiladi. Bu jarayon raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, hisobot topshirishda shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi.

Soliq davri: yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 1 kalendar oy; elektron xizmat ko'rsatuvchi chet el kompaniyalari uchun – chorak belgilangan. Topshirish va to'lash muddati: hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiqadargadar. Nollik hisobot: agar soliqqa oid operatsiyalar amalga oshirilmagan bo'lsa ham, nollik hisobot topshirilishi shart.

Hisobot tarkibi:

- titul varag'i (soliq to'lovchi haqidagi ma'lumotlar);
- QQS hisobi (ilovalar asosida avtomatik shakllantiriladi);

ilovalar:

- realizatsiya aylanmalari;
- ozod qilingan va "0" stavkadagi aylanmalar;
- kiruvchi QQS summasi hisob-kitobi;
- hisobvaraq-fakturalar reestri;
- tuzatishlar reestri;
- yil boshidan jamlanma hisobot.

Mavjud muammolar:

- ayrim kichik biznes subyektlari uchun hisobot shakllarining murakkabligi;
- soliq organlari tomonidan kameral tekshiruvlarda turli talqinlar mavjudligi;
- internet va texnik sabablarga ko'ra hisobotlarni o'z vaqtida yuborishda kechikishlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, QQS hisobotini elektron tartibda topshirish tizimi soliq ma'murchiligida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq jarayonni soddalashtirish va kichik biznes subyektlari uchun masofaviy ko'mak tizimini kuchaytirish zarur.

QQS hisobotini taqdim etish jarayonini soddalashtirish maqsadida soliq organlari tizimda mavjud ma'lumotlardan foydalanib, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



Bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkin:

- dastlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun;
- keyinchalik yirik soliq to'lovchilarga kengaytirish.

Taklifimiz shundan iboratki:

- har oyning 20-sanasidan kechikmay soliq organlari hisobotni avtomatik shakllantiradi va soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga xabar yuboradi;

- soliq to'lovchi belgilangan muddat ichida hisobotni tekshirishi, o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- belgilangan muddat o'tgach, hisobot avtomatik ravishda qabul qilinadi.

Taklifimiz amaliyotga joriy qilinsa:

- hisobot topshirishdagi ortiqcha vaqt va xarajatlar kamayadi;

- hisobotni kechiktirib topshirish holatlari sezilarli darajada qisqaradi;

- soliq to'lovchilar uchun shaffof va qulay muhit yaratiladi;

- hisobot topshirmaganlik uchun jarima va sanksiyalar qo'llanilmaydi, chunki hisobot avtomatik shakllantiriladi va qabul qilinadi.

4. QQSni qaytarish (o'rni qoplash) amaliyoti

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 272-moddasiga ko'ra, agar kiruvchi QQS summasi chiquvchi QQSdan ko'p bo'lsa, hosil bo'lgan salbiy farqni keyingi soliq davrlariga o'tkazish yoki uning o'rni qoplash (qaytarib olish) mumkin. Bu tartib asosan eksport operatsiyalarida, investitsiya loyihalarida va soliqning ortiqcha to'lanishi hollarida qo'llaniladi.


QQS qaytarish uchun quyidagi talablar bajarilishi zarur:

- elektron hisobvara-faktura mavjudligi;
- bitim soliqqa tortiladigan aylanmalarga kirishi;
- kontragent QQS to'lovchilar reestriga kiritilgan bo'lishi;
- tovar/xizmatlar amalda qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lishi.

Qonunchilikka ko'ra ayrim soliq to'lovchilar QQSni tezlashtirilgan tartibda qaytarish huquqiga ega. Masalan:

- yirik soliq to'lovchilar;
- bank kafolati taqdim etganlar;
- eksportchilar;
- diplomatik vakolatxonalar;
- soliq monitoringida ishtirok etuvchilar.

Bular uchun qaytarish muddati 7 kun, "AAA" barqarorlik reytingiga ega soliq to'lovchilarga esa 1 kun etib belgilangan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda 2022-2024-yillarda QQS qaytarish (qoplab berish) hajmlari

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga (2-rasm) ko'ra, QQS qaytarish hajmining ko'payishi soliq ma'murchiligidagi raqamlashtirish jarayonlari, eksport operatsiyalarining kengayishi va qaytarish tizimining samaraliroq ishlayotganini anglatadi.

Lekin shu bilan birga tizimda ayrim muammolar ham mavjud:

- qaytarish jarayonida byurokratik kechikishlar;
- kameral tekshiruvlarda ortiqcha vaqt sarfi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, QQSni qaytarish tizimi yildan yilga takomillashmoqda, ammo biznes uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadida:

- qaytarish jarayonini to'liq avtomatlashtirish;
- risk tahlili asosida "halol" soliq to'lovchilar uchun kameral tekshiruvdan voz kechish;
- tezlashtirilgan qaytarish ko'lamini yanada kengaytirishni taklif etamiz.

5. QQS ma'murchiligida risk-tahlil tizimi (RMS)

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliq to'lovchilarning individual risk-profillarini baholash uchun avtomatlashtirilgan "Risk-tahlil" markazlashtirilgan tizimini joriy etdi. Bu tizim orqali soliq xavflarini tezkor aniqlash, soliq qonunchiligi buzilishlarining oldini olish va nazorat tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Soliq xavfi darajasi qator ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- soliq yuki;
- hisobotlarga qayta-qayta o'zgartirish kiritilishi;
- hisobotlarda bir necha davr mobaynida zarar ko'rsatilishi;
- soliq to'lovchi manzilni ko'p marta o'zgartirish holatlari;
- shubhali subyektlar bilan operatsiyalar;
- rentabellik pastligi;
- hisobotlar va boshqa ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqlik.

Soliq xavfi darajasiga qarab soliq to'lovchilar dastur orqali aniqlangan ballar va potensial soliq xavfi asosida baholanadi hamda toifalarga ajratiladi.

Soliq xavfi darajasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = Sr / Sp \times 100\%$$

Bunda:

R - xavf darajasi (foizda);

Sr - soliq to'lovchiga berilgan xavf ballari yig'indisi;

Sp - xavf darajasini aniqlashda qo'llangan potensial soliq xavfi ballari yig'indisi.

Bunda soliq xavfi darajalarini baholash natijalari yuqoridan kamayish tartibida, baholash natijalari teng bo'lganda esa - to'lanmagan soliq summasi ehtimoli asosida quyidagicha toifalanadi:

- Past xavf (1-29%) - profilaktik choralar;
- O'rta xavf (30-80%) - soliq organlari tomonidan qo'shimcha nazorat;
- Yuqori xavf (81-100%) - soliq auditi o'tkaziladi.

Tizimning amaliyotga joriy etilishi bilan:

- soliq auditining manzilliligi oshdi;
- shubhali operatsiyalarni tezkor bloklash imkoniyati yaratildi;
- soliq tushumlarining barqarorligi ta'minlanmoqda;
- soliq ma'murchiligining shaffofligi ortib bormoqda.

Tizimdagi mavjud muammolar:

- baholash mezonlarining bir qismi to'liq ochiq emas;
- risk profillarini hisoblashda texnik xatolar yoki ma'lumotlar yetishmasligi holatlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi to'liq raqamlashtirish bosqichiga yetdi: ro'yxatga olish jarayoni avtomatlashtirildi, elektron hisobvaraq-fakturalar majburiy tartibda joriy etildi, soliq hisobotlari elektron shaklda qabul qilinmoqda. QQS qaytarish amaliyotida shaffoflik va dinamika ta'minlandi: 2022–2024-yillarda qaytarish hajmi 19,3 trln so'mdan 22,8 trln so'mgacha oshdi, bunda asosiy ulush ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri keldi. Risk-tahlil tizimi orqali soliq to'lovchilarning xavf darajalari aniqlanmoqda, bu esa soliq auditining manzilliligini oshirdi hamda "texnik firmalar" va asossiz qaytarish holatlariga qarshi samarali kurash imkonini yaratdi.

Takliflar quyidagilardan iborat:

1. Ro'yxatga olish bo'yicha – yillik aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshgan va import operatsiyalarini amalga oshiruvchi subyektlarga QQS guvohnomasini avtomatik berish. Bu kiruvchi QQSni o'z vaqtida hisobga olish imkonini yaratadi va biznes uchun ortiqcha soliq yukini kamaytiradi.



2. Elektron hisobvaraqa-fakturalar tizimi bo'yicha – tizimni B2C operatsiyalariga ham joriy etish, texnik barqarorlikni ta'minlash.

3. QQS hisobotlari bo'yicha – soliq organlari tomonidan tizimdagi ma'lumotlar asosida hisobotlarni avtomatik shakllantirish amaliyotini joriy etish, avtomatik hisobot topshirilganda jarima va sanksiyalar qo'llanilmasligini qonunchilikda mustahkamlash.

4. QQS qaytarish bo'yicha – tizimni to'liq avtomatlashtirish, shaffoflikni oshirish, kameral tekshiruvlarning rolini kamaytirish hamda tezlashtirilgan qaytarish ko'lamini kengaytirish.

5. Risk-tahlil tizimi bo'yicha – mezonlarni yanada ochiq va shaffof qilish, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa idoralar o'rtasida tezkor axborot almashinuv tizimlarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ebrill L., Keen M., Bodin J., Summers V. The Modern VAT. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2001. www.imf.org
2. IMF. Revenue Administration: Administering the Value-Added Tax. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2019. www.imf.org
3. Hutton E. The Revenue Administration Gap Analysis Program (RA-GAP): Value-Added Tax Gap Estimation Methodology. – Washington, DC: World Bank Group, 2017. www.worldbank.org
4. OECD. Consumption Tax Trends 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020. www.oecd.org
5. European Commission. VAT in the European Union. – Brussels: European Union, 2021. www.commission.europa.eu
6. Toshmatov Sh.A., Komilov M.M. Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. – 184 b.
7. Майбуров и др. Энциклопедия теоретических основ налогообложения. – М.:Юнити-Дана, 2016. 503с.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.
9. www.lex.uz
10. www.soliq.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100